

O'ZBEKISTON HUDUDIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK KOMPLEKSLARNING O'RNI

Ikromova Movluda Murodovna

Toshkent arxitektura-qurilish institute Arxitektura fakulteti

“Interyer va landshaft dizayni” kafedrası assistenti

Annotation

Maqolada O'zbekistonning tarixiy obidalari joylashgan hududlarida turizmni yana ravnaq toptish uchun turistik komplekslar tashkil etish zarurligi asoslab berilgan. Sayyohlar oqimini yana rivoj toptirish uchun turistik zonalarining to'g'ri tashkil etilishi va hudud sharoitiga moslangan holda loyihalaniishi haqida takliflar keltirib o'tilgan. Hozirgi kunda yurtimizda eng dolzarb masalalardan biri ham O'zbekistonda turizmni yana rivojlantirish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ichki, turizm, xizmatlar, turistik zona, turistik kompleks, me'moriy obidalar, xalqaro.

Annotation: The article substantiates the need to create tourist complexes for further development of tourism in the regions of Uzbekistan where historical monuments are located. Proposals have been made that the tourist zones will be properly organized and designed to adapt to the conditions of the area in order to find the flow of tourists again. Currently, one of the most urgent issues in our country is the development of tourism in Uzbekistan again.

Keywords: domestic, tourism, services, tourist zone, tourist complex, architectural monuments, international.

Yuksak madaniyati va ilm-fani, me'moriy obidalari bilan ko'pchilikni hayratga solgan mamlakatimiz istiqlol sharofati bilan zamonaviy sayyohlik markaziga aylandi. O'zbekistonda turizm sohasi nisbatan yangi bo'lishiga qaramay, ko'plab rivojlanish yo'nalishlarida odimlab bormoqda. Mamlakatimiz xalqaro turizmni rivojlantirish uchun ulkan tarixiy yodgorliklarga boy maskanlardan biri hisoblanadi. Bundan o'ttiz yil muqaddam hech kim O'zbekistonni istiqbolli sayyohlik maskani sifatida bilmas edi. Davlat mustaqillikka erishgach, turizm sohasida yangi tamoyillar ishlab chiqildi va ular asosida turizmni rivojlantirishning milliy modeli yaratildi.

O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2018 yilning 28 dekabrda Oliy majlisga Murojaatnomasida turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim deb quyidagi bir qator omillarni ta'kidlab o'tdilar:

Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda 2019–2025 yillarda Turizmni rivojlantirish milliy

konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha topshiriq berildi. Shu asosda 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar soni 7 million nafarga yetishiga, turizm eksportidan keladigan daromad esa 2 milliard dollardan ziyod bo'lishiga erishish lozimligi ta'kidlandi [1]. Shu munosabat bilan yurtimizda hududida joylashgan tarixiy obidalar rekonstruksiya qilish ishlari boshlab yuborildi. Atrof hududlari qayta tiklandi va obodonlashtirish ishlari olib borildi. Ko'plab tarixiy obidalar maskanlari hududida turistlar qiziqishlarida kelib chiqqan holda, atrof hududlarida turistik zonalar tashkil etishga doir loyihalar ishlab chiqildi. Tez fursatda bu loyihalar sekin asta amaliyotga tadbiiq etila boshlandi. Natijada O'zbekistonning tarixiy obidalarga boy hududlari bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Surxandaryo kabi tarixiy ziyoratgohlar joylashgan hududlarida turistlar oqimi keskin ko'paya boshladi.

O'zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan qadimiy me'morlik va san'at yodgorliklari bilan faxrlanadi. Mamlakatimiz hududida turli davr va sivilizatsiyasiga daxldor to'rt mingdan ortiq tariximiz namunalari mavjud. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlaridagi 209 ta me'moriy yodgorliklar YUNESKO ning "Butun dunyo me'rosi" ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshootlar o'tmish zamonlarni o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi [2].

Turizmni rivojlantirishda Samarqand, Buxora va boshqa tarixiy obidalar joylashgan shaharlar hududlarni sayyohlik maskaniga aylantirishda ayniqsa, sayyohlar oqimini oshirishda turistik zonalar, jumladan, turistik mehmonxonalar muhim o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari tufayli chet ellik delegatsiyalarni qabul qilish, ularga zamon talablar asosida xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan ko'plab sayyohlik maskanlari barpo etildi. Mavjud turistik komplekslar zamonaviy va milliy me'morchilik an'analari asosida rekonstruksiya qilindi.

Poytaxtimiz va tarixiy shaharlarimizda qad rostlagan sayyohlik majmualarining go'zalligi, betakror va o'ziga me'moriy dizayni, tevarak-atrofdagi bino va inshootlar bilan uyg'unligi, qulay joylashuvi shaharning umumiy qiyofasida alohida o'rin tutadi. Shaharlarimizning go'zal tabiati, mo'tadil ob-havo dam olish uchun hordiq chiqarish uchun juda qulay.

Turistik zonalarini loyihalash jarayonida tarixiy obidalar joylashgan hududlar, iqlim sharoitiga qarab turli uslubdagi turistik kompleks turlaridan shu hududda turizmni rivojlantirish uchun eng qulay turini tanlab loyihalashtirish maqsadga muvofiq. Zamonaviy standartlar bo'yicha turistik zonalarining quyidagi turlarga bo'linadi: turistik mehmonxonalar, turistik bazalar, motellar, kempinglar, mehmon uylari, hijinalar va boshqalar.

Turistik zonalar asosan shaharda joylashgan bo'lib, ammo ular qirg'oqda, tog'larda va asosiy sayyohlik yo'nalishida joylashgan bo'lishi mumkin. Turistik zonalar har qanday tabiiy iqlim sharoitida joylashgan bo'lishi mumkin; shahar tashqarisida, qishloqda, sayyohlik yo'nalishida joylashgan bo'lishi mumkin va ular asosan asosiy va oraliq yo'nalishlarda bo'lishi mumkin.

Turistik zonalarining tarixiy obidalar joylashgan hududga yaqin loyihalaniishi kerak. Shu bilan

birga turistik kompleksning arxitekturaviy-tarxiy yechim kompozitsiyasiga shahar, turistik va rekreatsion shahar atrofida hudud arxitekturasiga mos ruhda, ularga uyg'un holda loyihalaniishi lozim. Bunda asosan turistik kompleksning joylashuv o'rniga alohida e'tibor beriladi. Shahar markazida yoki uning tashqarisida, shahar markazining diqqatga sazovor joylarida yoki transport kesishmalarida, shahar atrofida yoki dam olishning park zonasida joylashgan bo'lishi mumkin. Turistik zonalar shaharning markazida joylashgan bo'lishi ko'cha, maydon, shahar binolari arxitekturaviy yechimi bilan uyg'unlikda loyihalaniishni talab qiladi.

Turistik zonalarini tarixiy hudud yaqinida loyihalashtirish nafaqat turistlar uchun qulaylik yaratishi va shu bilan birga mamlakat hududiga tashrif buyuruvchilar uchun xizmatlarni taklif etishdan iborat. Tarixiy yodgorlik joylashgan maydon atrofida turistik maskanlarni loyihalash va amaliyotga tadbiiq etish orqali shu hududda yashovchi aholini bo'sh ish o'rinlari bilan yaratilishiga sabab bo'ladi. Buni quyida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "Mehmonxona xo'jaligi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 433-son qarori ham ko'rishimiz mumkin.

2021— 2022-yillarda mahalliy va xorijiy tashabbuskorlar tomonidan 61 ta loyiha amalga oshiriladi va buning natijasida 1 172 ta yangi ish o'rni yaratilishi, viloyatdagi mehmonxonalar miqdorini 451 taga, turistik firmalar sonini esa 129 taga yetkazish nazarda tutilgan [3]. Bu keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar o'z navbatida yurtimizda turizmning rivojlanishiga yana bir asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sharoitida turizmni rivojlantirish uchun turistik komplekslarni to'g'ri tashkil etish sayyohlik oqimini yanada ravnaq topishiga zamin yaratadi. Hozirgi kunda yurtimizda eng dolzarb masalalardan biri ham O'zbekistonda turizmni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Bu o'rinda yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa qilib aytishimiz mumkinki, turistik komplekslarni tashkil etish orqali tuzrimni yanada rivojlantirishimiz mumkin.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 28.12.2018 y. Xalq so'zi gazetasi, 2018 yil 29.12.
2. Mannopova N., Mannapov A. Influence of "Thematic Parks" to the development of tourism in Uzbekistan//ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021 – T. 10 – №. 4 – C. 696-704.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "Mehmonxona xo'jaligi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 433-son qarori, Toshkent shahri.